



SCIENCE BOX

## O'ZBEKISTONDA INNOVATSION RIVOJLANISH VAZIRLIKNING TASHKIL ETILISHI, DAVLAT SIYOSATIDA TUTGAN O'RNI VA AHAMIYATI, TURIZM BILAN BOG'LANGANLIGI

*O'ktamova Umida O'ktam qizi*

Qarshi Davlat Universiteti talabasi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Innovatsion rivojlantirishning tashkil etilishi, mamlakat miqyosidagi o'rni, innovatsion g'oyalarni qo'llab - quvvatlash, ularni joriy qilish. Turizm va madaniy meros vazirligi bilan bog'langanligi. Hududlarda yangi turizm innovatsion g'oyalarni tashkil etish.

**Kalit So'zlar:** Innovatsion rivojlanish vazirligi, texnologik agentliklar, texnologik IT parklar, ekoparklar, flora va faunalar, biznes inkubatorlari, innoweek.uz .

Vazirlik - har bir davlatda muayyan bir sohaga rahbarlik qiladigan shuningdek ijro etuvchi hokimiyatni amalga oshiradigan davlat organi. Hozirgi kunda O'zbekistonda yigirma beshta vazirlik mavjud. So'nggi yillarda tashkil etilgan Innovatsion Rivojlanish Vazirligi davlatimizning ko'pgina sohalariga ijobiy ta'sir ko'rsatib kelmoqda. Mazkur vazirlik O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 - yil 29 - noyabrdagi " O'zbekiston Respubliksi Innovatsion Rivojlanish Vazirligini tashkil etish to'g'risida " gi PF - 5264 - son Farmoni bilan tashkil etildi. Vazirlik boshqaruv xodimlarining cheklangan soni sakson ikki nafardan iborat. Vazirlikka yuklatilgan vazifalarni bajarish doirasida davlat organlari va boshqa tashkilotlar, yetakchi loyiha institutlari, ilmiy - ta'lim mutaxassislarining yuqori malakali kadrlari, shuningdek xalqaro tashkilotlar, chet el kompaniyalari va mutaxassislarini maslahatchi sifatida jalb qilish orqali yuqori malakali chet el mutaxassislarini ishga qabul qilish, shuningdek ularga jamg'arma mablag'lari hisobidan ish haqi va boshqa to'lovlarni belgilash huquqi beriladi. Vazirlikning asosiy vazifasi Respublikamizdagi innovatsion va ilmiy - texnik rivojlantirish sohasida jamiyat va davlat hayotini har tomonlama rivojlantirishga, mamlakatning intellektual va texnologik salohiyatini amalga oshirishga qaratilgan yagona davlat siyosati shuningdek yangi va zamon talabiga mos keladigan innovatsion g'oyalarni qo'llab - quvvatlashdan iborat. Vazirlik Vazirlar Mahkamasi qonunlarida nazarda tutilgan faoliyatining masalalari bo'yicha to'g'ridan - to'g'ri O'zbekiston Respublikasi Prizentiga bo'ysunadi. Huquq va majburiyatlar bo'yicha Respublikamizning Fan va texnologiyalar agentligining vorisi hisoblanadi. Innovatsion Rivojlanish Vaziri va uning o'rnbosarlari Bosh vazirning tavsiyasiga binoan Prezident tomonidan tayinlanadi va lavozimidan ozod qilinadi. O'z faoliyati davomida quyidagilarni bajaradi;

1. Maqsadlar uchun shartnomma asosida jumladan xorijiy konsultantlar va ekspertlarni, shuningdek texnik ko'mak va grantlarni ajratish;
2. Innovatsion rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqadi, xalqaro tajribalarini o'rganadi va tadbiq etadi;
3. Vazirlik va uning tarkibidagi xodimlarni qayta tayyorlaydi;
4. Innovatsion ilmiy darajadagi dolzarb masalalari ustida tadqiqotlar olib boradi;





SCIENCE BOX

5. Investitsiya siyosatini ishlab chiqadi;
6. Xorijiy mamlakatlarning tegishli vazirliklari va idoralari bilan o'zaro manfaatli hamkorlikni o'rnatadi.

Albatta O'zbekistondagi barcha vazirliklar bir biriga deyarli bog'langan. Masalan Ichki ishlar vazirligi Vazirlikning buyurtmalari bo'yicha yuklatilgan vazifalar doirasida jalb qilinayotgan chet el mutaxassislariga davlat boji undirilmasdan ko'p martalik vizalar rasmiylashtirilishi, berilishi va muddati uzaytirilishini, shuningdek, ularni vaqtincha turgan joyi bo'yicha ro'yxatga olish va uning muddati uzaytirilishini ta'minlaydi. Bandlik va mehnat munosabatlari vaziri chet el mutaxassislarini jalb qilish va ularning mehnat faoliyatini amalgaga oshirishda huquqiy ruxsatnomalar berish ularning muddatini uzaytirishni ta'minlashdan iborat. Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari vazirligi tomonidan sifatli aloqalarni yo'lga qo'yish orqali Innovatsion rivojlanish vazirligini yanada rivojlantirishga o'z hissasini qo'shamoqda.

Innovatsion rivojlanish vazirligi hukumatda bosh vazir o'rinnbosari - investitsiyalar va tashqi savdo vaziri Sardor Umurzoqov rahbarlik qilayotgan tizimga to'g'ridan - to'g'ri o'tkazildi. Bunga qadar vazirlik bosh vazir Abdulla Aripov to'g'ridan - to'g'ri rahbarlik qilayotgan kompleks tarkibida edi. Mazkur o'zgartirish 2021 - yil 11 - mart kuni Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida o'tkazilgan vedioselektrda e'lon qilindi. Vazirlikning birinchi o'rinnbosari etib Shahlo O'tkirovna tayinlandi. Innovatsion vazirlikning 2019 - 2021 - yildagi strategik yo'nalishida belgilangan dasturni amalga oshirish natijasida iqtisodiyot, sog'likni saqlash, energetika, qurilish, ta'lim, qishloqxo'jaligi va turizm sohalaridagi innovatsiyalar sababli yanada jadal rivojlandi. Ta'lim va ilm - fanga davlat budgetidan ajratilgan mablag'lar 2018 - yilga nisbatan uch baravarga oshirildi va 1,5 trillion so'mga yetkazildi. Yosh olimlarning soni 2018 - yilda 6,5 ming nafar bo'lgan bo'lsa 2021 - yilda ularning soni 10,8 ming nafarni tashkil etdi. So'nggi to'rt yilda innovatsion faoliyatni moliyalashtirish maxsus institutlarning soni 28 taga yetdi. 2018 - yildan boshlab har yili o'tkaziladigan Xalqaro innovatsion g'oyalalar haftaligi - " innoweek.uz " xorijiy innovatsion va ilmiy markazlar, investitsion fondlar, texnologik agentliklar, texnoparklar va biznes - inkubatorlarni bir maqsad yo'lida jamlovchi innovatsion texnologiyalar platformasiga aylanmoqda. Respublikada innovatsion rivojlanishni jadallashtirish, iqtisodiyotning barcha sohalarida innovatsiyalar va texnologiyalarni keng tadbiq qilish, inson kapitalini, ilm - fan va innovatsiya sohalarini rivojlantirish maqsadida 2022 - 2026 - yillar uchun innovatsion rivojlantirish vazirligining yangi strategiyasi e'lon qilindi. Bu strategiya quyidagi yo'nalishlarni qamrab oladi;

1. Innovatsion infratuzilma subyektlari tarmog'ini shakllantirish
2. Ko'pgina STARTAP tashabbuslarini qo'llab - quvvatlash
3. Yirik hajmli ishlab chiqarishni tashkil etish
4. Innovatsion loyihalarni davlat tomonidan qo'llab - quvvatlashishiga erishish orqali turizmni rivojlantirish
5. Turizm jadal sur'atlar bilan rivojlangan davlat tajribalaridan namuna olib yangi innovatsion g'oyalarni ishlab chiqish
6. Innovatsion texnologik parklar tashkil etish va natijada o'zlarining innovatsion g'oyalari bilan ishtiroy etishni ta'minlashdan iborat
7. Turizm va madaniy meros vazirligi bilan hamkorlik qilish. Turistik hududlar uchun alohida kompleks rejalar ishlab chiqish.



SCIENCE BOX

Strategiyadan kutilayotgan asosiy maqsadlar zamirini yoshlarda yaratuvchanlik, tadbirkorlik, ratsionalizatorlik qobiliyatlarini shakllantirish, innovatsion faoliyatni mikro va makro darajada amalga oshirish va rivojlantirishni ta'minlash bo'yicha innovatsion sohadagi mutaxassislarini ko'paytirish, xalqaro maydonda mamlakatning ilmiy innovatsion infratuzilmasini shakllantirish va modernizatsiya qilish, turizm resurs safarbarligidan yanada ko'proq foydalanish turizm uchun zarur bo'lgan obyektlar zanjirini yaratish va turizmning turlarini rivojlantirishdan iborat.

Innovatsion rivojlantirish vazirligi va Turizm va madaniy meros vazirligining bog'langanligini Vazirlar Mahkamasining 2018 - yilning 1 - iyunida qabul qilingan " Sayyohlar uchun taqilangan hududlarni ochish va turizmni rivojlantirish to'g'risida " gi qarorni tasdiqlanishida ko'rishimiz mumkin. Endilikda quyidagi hududlarni sayohat, turizm, ilmiy darajadagi ishlarni olib borish mumkin;

1. Qashqadaryo viloyatidagi Qalasoy darasidagi Amir Temur G'ori,dinozavr izlari, Suvtushar sharsharasi, Toshqo'rg'on qishlog'I, Jovuz, G'ilon, Kul qishloqlari Xo'ja Karshavar paltosi, Janka ko'li, Severseva muzligi, Hazrat Sulton ziyyaratgohi;
2. Jizzax viloyatining Zomin tumanidagi Suffa platosida joylashgan xalqaro radioastronomik majmua va unga tutash hududlar;
3. Jizzax viloyati chegarasidagi Guralashsoy, Zomin sanatoriyasidan Suffa platosi orqali yo'l va Muzbuluoq qishlog'iga bo'lgan Qizilmozor tabiiy hududi.

Turizm qo'mitasidan qayd etilishicha, ushbu qaror O'zbekiston jozibadorligini oshirish hamda chet ellik va mahalliy turistlarni jalg qilish maqsadida qabul qilindi. Turizm sohasidagi yangi innovatsion loyihibalar tog' va ekologik turizmning rivojlanish tendensiyalarini belgilab o'tadigan bo'lsak ikki tomonlama iqtisodiy foyda olish darjasini yuksaladi. Ekoturizmga mansub hududlar qo'riqxonlar, ekoparklar, flora va faunalarni tabiiy holda saqlab qolish, turistlar uchun ekoturistik marshrutlarni tashkil qilish, ekologik resurslarning saqlanishi va ular uchun ortiqcha zarar yetkazmaslikni ta'minlashdan iborat. Qashqadaryo viloyatidagi Hisor Davlat Qo'riqxonasi, AmirTemur g'ori va Yakkabog' tumanidagi Toshqo'rg'on qishlog'i uchun yangi innovatsion loyihalarni quyidagicha izohlash mumkin;

1. Qo'riqxona uchun yangi kompleks hududlarning ajratilishini ta'minlash . Bu hududlarda turistlar uchun dam oladigan hostellarni tashkil qilish;
2. G'orlarga borishda turistik marshrutlarini tashkil etish. Keng tarmoqli Vagon mehmon uylarini ko'paytirish;
3. Qoyalar va tog'larga sayohat qilmoqchi bo'lganlar qiziquvchilar uchun tog' turizm kompleksini yaratish;
4. Qishloqda mehmon uylarini tashkil qilish. Bo'sh qolgan yer maydonlarida golf maydonlarining loyihalari;
5. Ovqatlantirish xizmatlarini yo'lga qo'yishda tabiiy toza mahsulotlardan foydalanish;
6. Animatorlik xizmatlari orqali turistlarning vaqtini mazmunli o'tkazishni ta'minlash.

Xulosa qilib aytkanda Innovatsion rivojlantirish vazirligining tashkil etilishi yangi innovatsion loyihalarni qo'llab - quvvatlash orqali davlatning barcha tarmoqlariga kirib bordi. Bundan tashqari har yili o'tkaziladigan " Butun jahon innovatsion loyihibalar birinchiligi "da ham ishtiroy etish imkonini berdi. Bu loyihamdan ko'zlangan asosiy maqsad yangi va albatta zamon talabiga mos bo'lgan har mingta loyihamdan yuztasini tanlab olish va davlat dasturiga kiritishdan iborat. Agar ular nazarda



SCIENCE BOX

tutgan bandlarga to'g'ri kelsa innovatsion g'oyani boshqa davlatlarga sotishi yoki sotib olish huquqiga ega. Bu albatta ikki tomonlama shartnomadan keyin innovatsion g'oya qaysi davlatga tegishli bo'lsa o'sha davlat hisobiga belgilangan miqdorda investitsiya kiritish bilan belgilanadi. Hozirgi kunda Yevropa davlatlarining mutaxassis innovatorlari bilan hamkorlik yuqori darajada yuksalmoqda. Ular bilan hamkorlik kelajakda imzolanadigan loyihibar uchun fundamental o'rinni bo'lib xizmat qiladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. HTTPS//LEX.UZ
2. HTTPS//MININNOVATION.UZ
3. Болтабоев, М. (2022). Религиозные реформы, проведенные при соляном режиме. Актуальные проблемы истории Узбекистана, 1(1), 455-461.
4. Raxmonov , E. K. o'g'li, Qobilov , F. S. o'g'li, & Berdimuradov , X. T. o'g'li. (2023). RESPUBLIKAMIZDA YETISHTIRILAYOTGAN BUG'DOY DONLARINING FIZIK-KIMYOVIY KO'RSATKICHLARINING TAHLILI. ILMIY TADQIQOT VA INNOVATSIYA, 2(2), 95–101. Retrieved from <http://ilmiytadqiqot.uz/index.php/iti/article/view/144>
5. Qobilov, F. S. o'g'li, & Raxmonov, E. K. o'g'li. (2023). NON MAHSULOTLARINI TAYYORLASHDA QURUQ KLEYKOVINADAN QO'SHIMCHA SIFATIDA FOYDALANISH. ILMIY TADQIQOT VA INNOVATSIYA, 2(2), 58–63. Retrieved from <http://ilmiytadqiqot.uz/index.php/iti/article/view/139>
6. Sattorova, K. A. qizi, & Raxmonov, E. K. o'g'li. (2022). NON MAHSULOTLARINI SIFATINI OSHIRISHDA QO'LLANILADIGAN QO'SHIMCHALAR. INTERNATIONAL CONFERENCES, 1(1), 29–31. Retrieved from <https://researchedu.org/index.php/cf/article/view/230>
7. Комилов, А., & Болтабоев, М. (2022). ЎЗБЕКИСТОН–УМУМИЙ УЙИМИЗ. Central Asian Academic Journal of Scientific Research, 2(3), 141-148.
8. Болтабоев, М. (2023). СОВЕТ ҲУКУМАТИНИНГ МАДРАСАЛАРГА БЎЛГАН МУНОСАБАТИ ТАРИХИ. IJTIMOIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI, 3(3), 115-119.
9. Akhmedjanova, F. D. (2022). THE INFLUENCE OF LEARNING STYLES ON LANGUAGE TEACHING AT SECONDARY SCHOOL. Academic research in educational sciences, 3(3), 5-9.
10. Djavairovna, A. F. (2022). The Impact of Learning Styles in Teaching English.
11. O'G'Li, X. T. X., Berdimuradov, E. K. O. G. L., BUG'DOY, R. N. U. T., & ASOSLASH, N. T. V. CARJIS. 2022.№ 10. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/navli-un-tortishda-bug-doy-naylorini-tanlash-va-asoslash> (дата обращения: 29.03. 2023).
12. Akhmedjanova, Farida Djavairovna. "The role and influence of feedback at foreign language learning achievement." Science and Education 2.Special Issue 2 (2021): 89-93.
13. HTTPS//XS.UZ
14. HTTPS//NORMA.UZ
15. PRIZEDENT FARMONI 5264 - SON

